

MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT O'QISH VA YOZISH
MALAKALARINING SOHALARI.

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Osiyo xalqaro universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda nutq, muloqot o'qish va yozish malakalarining sohalari haqida fikr-mulohazalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, o'qish malakalari, intellektual, matematik tushuncha.

Abstract: This article deals with opinions about the areas of speech, communication, reading and writing skills in preschool education.

Key words: speech, reading skills, intellectual, mathematical understanding.

Nutq va til kichik sohasi bo'yicha davlat talablarida ko'rsatilgan talablar va kutilayotgan natijalar 6 oylikkacha bo'lgan bolalarning nutqni tinglash, tushunish va muloqot yuritish qobiliyatiga egaligi ularda nutq rivojlanishining talabi hisoblanadi.

Quyidagilar 6 oylikkacha bo'lgan bolalarda nutq indikatorlari hisoblanadi:

- turli nutq va kuylarga emotsional munosabatini namoyon etish;
- bolalar qo'shiqlari va aytishuvlarini tinglash;
- turli ovozlarga taqlid qilish;
- so'zlarning dastlabki bo'g'inlarini hamda "ma", "ka", "ba" kabi oddiy bo'g'inlarni bayon qilish.

Bola bilan munosabatlarda quyidagilarga amal qilish lozim:

- bola bilan ko'proq so'zlashish, unga she'rlar, latifalar aytib berish;
- musiqa va bolalar ashularini tinglashni rag'batlantirish;
- alla aytish;
- muntazam ravishda quvnoq hikoyalar o'qib va aytib berish;
- bola bilan muloqot yuritayotganda so'zlarni bir necha marta takrorlash;
- bolaning tashabbuskorligini rag'batlantirish va uning e'tiboriga javob qaytarish;
- chiroyli rasmlarni ko'rsatish va ularning nomini aytilish.

Bola bilan xotirjam va do'stona ohangda muloqot qilish, shuningdek u turgan xonada tinch va xotirjam sharoitlarni ta'minlash zarur.

O'qish malakalari

O'qish va savod malakalarini egallash

6 oylikkacha bo'lgan bolalarning bosma materiallar, harflar va ramzlarga qiziqish bildirishi

hamda yozish ko'nikmalarini o'rganishi, ularda o'qish va savod malakalari rivojlanishining talablari hisoblanadi.

Quyidagilar 6 oylikkacha bo'lgan bolalarda o'qish va savod malakalari indikatorlari hisoblanadi:

- qog'oz yoki gazetani g'ijimlab tashlash;
- rangli kitoblarni tomosha qilish;
- devordagi rasmlar va plakatlarni tomosha qilish;

ikki qo'li bilan yozuv asboblarini (uchi ochilmagan rangli qalamlar, yopiq ruchkalar, rangli markerlar) ushlab turish va ular bilan o'ynash.

6 oylikkacha bo'lgan bolalar bilan quyidagi mashqlarni muntazam ravishda bajarib turish lozim:

- bolaga qog'oz parchasi berish va bolaning undan qanday foydalanishini kuzatib turish;
- bolaga chiroyli bezatilgan kitob berish va uning kitobni tomosha qilishini rag'batlantirish;
- bolaning oldiga tartibsiz ravishda bir necha rasmlarni qo'yish;
- bolaga katta marker yoki flomaster berish va ularni qo'lida ushlab turishga undash.

Bolaning xavfsiz yashashi va harakatlanishini ta'minlash uchun uning turli buyumlarni og'ziga solmasligini kuzatib turish lozim.

O'qish malakalari kichik sohasi 3-4 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar kitob haqida tushunchaga ega; kattalardan kitob o'qib berishlarini so'raydi; o'z yoshiga mos kitoblarni tomosha qiladi; kitobdagi rasmlar va so'zlar orasidagi bog'liqlikni aniqlaydi; rasmlardan tanish ertak qahramonlarini taniydi.

4-5 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar tinglagan hikoyasiga munosabatini bildiradi va kattalarga savol beradi; rasmlar asosida tinglagan asarining asosiy o'rinlarini gapirib bera oladi; badiiy asardan parcha tinglagandan so'ng asar nomini ayta oladi; o'z yoshiga mos she'rlarni yoddan biladi; kitobdan ehtiyotlab foydalanadi.

5-6 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar so'zdagi birinchi tovushni biladi; kitobni mustaqil tomosha qiladi; tovushlarni farqlaydi; so'zlarni bo'g'inga bo'ladi; so'zlarga qofiya kelishtiradi; nutqning dialogik shaklini qo'llaydi, savollar beradi; she'rlarni yod oladi va ifodali o'qiydi;

VOLUME-2, ISSUE-1

sevimli badiiy adabiyot, ertak va hikoya mualliflari va ularning nomini biladi;
ifodalilikning ohang vositalarini to'g'ri qo'llaydi;
harflarga tegishli so'zlarni topadi.

6-7 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar

boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so'zlab beradi;

sodda va murakkab gaplarni nutqida qo'llaydi;

so'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi;

bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzadi;

so'z, tovush, bo'g'in, gap haqida tushunchaga ega;

peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o'qiydi;

bolalar adabiyoti janri nomini biladi (ertak, she'r, hikoya);

mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi.

Qo'l barmoqlari mayda motorikasi

Talab: Bolada yozuv malakasi shakllanadi

3-4 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar

2-3 obyektidan rasm tuzadi;

varaqa sathida to'g'ri chiziqlar chizadi;

harflarga qiziqish bildiradi, ayrim harflarning shaklini biladi va farqlaydi;

yirik munchoqlarni ipga teradi;

yo'zishga harakat qiladi.

4-5 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar

chiziq, belgi, ilgaklarning sodda namunalarini qayta chiza oladi;

predmetlarning murakkab bo'lmagan shakllarini chizadi;

rasmlarni ustidan yurgizib chizadi va bo'yaydi;

shablonlarni shtrixlaydi;

mayda qismlardan iborat konstruksiyani yig'adi;

o'rta munchoqlarni ipga teradi;

aniq belgilangan chiziq asosida qog'ozni qaychi bilan qirqadi;

belgilangan chiziq asosida qog'ozni tekis yirtadi;

ikki qo'li bilan qog'ozni buraydi.

5-6 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar

chiziq, ilgak va gajakcha yozadi;

qog'ozni turli usulda taxlaydi (origami);

namuna asosida bosma harflarni yozishni boshlaydi;

barmoqlari yordamida mashqlar bajaradi;

rasmlarni tekis shtrixlaydi;

turli sathlarda chizadi (nam qumda, asfaltda, doskada);

soch o'radi;

mozaika yig'adi.

6-7 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar

qog'ozda to'g'ri chiziqlar, so'zlar va qisqa gaplarni yozadi;

daftardagi yozuv qatorlarini aniqlay oladi;

rasmlarni to'g'ri joylashtiradi;

qo'lni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizadi;

matodagi rasmni to'qiydi;

“o'ziga” va “o'zidan” harakatlari yo'nalishini tushunadi;

turli materiallardan murakkab namunalarni qirqadi.

Bilish jarayonining rivojlanishi bo'yicha quyidagi kichik soahalar ajratiladi

Intellectual-bilish malakalari

Elementar matematik malakalar

Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat

Dunyoni badiiy tasavvur etish

Intellectual-bilish malakalari bo'yicha yosh kesimida kutilayotgan natijalar

3-4 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar

bitta belgi asosida predmetlarni ajratadi;

olti rangni farqlaydi va ajratadi;

bir xil poyini topadi;

rasmlardagi predmetlarni taniydi va nomini aytadi;

jonli obyektlarga qiziqish bildiradi;

predmetlar yasalgan materialni farqlaydi (qog'ozdan, taxtadan, temirdan);

xonani kuzatadi va o'zi turgan joyni aniqlaydi;

atrof muhitga qiziqish bildiradi.

4-5 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar rasmlarni solishtiradi;

2-3 belgi asosida guruhlarga ajrata oladi;

jonzodlarning asosiy ehtiyojlarini ta'riflaydi va taqqoslaydi (hayvonlar: ovqat eydi, nafas oladi, harakatlanadi va hokazo);

hayot uchun suv, havoning ahamiyatini ta'riflaydi;

kun qismlarini nutqida to'g'ri qo'llaydi va biladi (ertalab, peshin, kechqurun, kechasi);

yil fasllarini tavsiflaydi;

atrof olamga faol qiziqish bildiradi.

5-6 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar

rasm asosida sujetni eslab qoladi va gapiradi;

ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi;

turli hayvonlarning yashash joylarini aytadi (baliq suvda yashaydi, bo'ri o'rmonda);

geografik tushunchalarni biladi (er, dengiz, tog‘, daryo);
oddiy sabab va oqibat aloqalarni tushunadi (yomg‘ir yog‘yapti — panaga o‘tish kerak);

sinash va xatolarni tahlil qilish yo‘li bilan amaliy vazifalar yechimini topishga harakat qiladi (mashinani yurg‘izish uchun kalitni burash kerak);

obyektlarni tizimga soladi.

6-7 yosh bo‘yicha kutilayotgan natijalar

Atrof olam haqida mustaqil ma‘lumot izlaydi;

kuzatuvlar asosida xulosa qiladi va umumlashtiradi;

yil fasllari va voqea-hodisa ketma-ketligini aytadi;

rasmlar bo‘yicha ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi;

o‘z mamlakati va uning ramzlari haqida tushunchaga ega;

o‘z xalqining ayrim milliy an‘analari va odatlarini biladi;

bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi (kerakli ma‘lumotni topa oladi);

ichki va tashqi belgilarga ko‘ra predmetlarni guruhlarga ajratadi (rangi, shakli, hajmi, vazni, harakatlanish tezligi, vazifasiga qarab).

Elementar matematik malakalar 3-4 yosh bo‘yicha kutilayotgan natijalar

predmetlarni 1-2 ta belgisi bo‘yicha guruhlarga bo‘ladi;

atrof muhitdan “bitta” va “ko‘p” ni topadi;

predmetlarni kattaligiga qarab teradi;

geometrik shakllarni farqlaydi (doira, kvadrat, uch burchak), shakllar (kub, shar);

ko‘plikni taqqoslaydi;

“uzun” va “qisqa” tushunchalari ma‘nosini biladi;

“yarim”, “yarimtacha” tushunchalarini biladi;

sanoq va sonlar qatoridagi bog‘liqlikni tushunadi;

mexanik tarzda 5 gacha sanaydi.

4-5 yosh bo‘yicha kutilayotgan natijalar

geometrik shakllarga o‘xshash predmetlarni topadi;

geometrik figura va shakllarning nomini biladi;

miqdoriy aloqalarni belgilaydi;

sonning miqdoriy tarkibini biladi;

matematik tushunchalardan foydalanadi (ko‘p, kam, jami, shuncha);

ketma ketlikda sanaydi;

ko‘pliklarni taqqoslaydi “ko‘proq”, “kamroq”, “teng”;

bo‘shliqda yo‘nalish olishni biladi (oldinda, orqada, tepada, pastda, yaqin, uzoq);

butun va uning qismlari tushunchasini tushunadi.

5-6 yosh bo‘yicha kutilayotgan natijalar

geometrik shakllarni biladi va ularni predmetlar orasidan ajratadi; predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko'ra taqqoslaydi;
predmetlar guruhini taqqoslaydi;
muloqot davrida matematik terminologiyani qo'llaydi;
belgilar tizimini tushunadi (son va belgilarni qo'llagan xolda +, -, =);
1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarni to'g'ri va teskari sanaydi;
predmetlarni soni va sanog'iga qarab taqqoslaydi;
predmetlar tengligi va tengmasligi guruhlarini aniqlaydi va ularni bir-biri bilan taqqoslaydi.

6-7 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar
ayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi;
geometrik shakllar va figuralarni biladi;
20 gacha bo'lgan ayrim matematik harakatlarni bajaradi;
10 gacha qo'shish va ayirishli sodda matematik vazifalarni yechadi (son va belgilarni qo'llagan xolda +, -, =);
son qatori haqida tushunchaga ega;
guruhlarining teng yoki teng emasligini tahlil qiladi (qanchaga ko'p? qanchaga kam?);

hajmi, balandligi va qalinligiga qarab predmetlarni ketma-ket joylashtiradi;
shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o'lchaydi.
Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat
3-4 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar
kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda qatnashadi (eritish, bo'yash, cho'ktirish, suv sathiga chiqarish va hokazo);
tabiatdagi ayrim o'zgarishlarni farqlaydi (qor, yomg'ir, do'l, issiq, shamol va hokazo);

ayrim hasharot va qushlarni taniydi va nomini aytadi;
ayrim jonivorlar bolalarini nomini to'g'ri aytadi;
"sujet" asosida qurilmalar yaratadi;
suv va qum bilan o'ynaydi;
jonli obyektlarni kuzatadi.
4-5 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar
kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda ishtirok etadi (eritish, yaxlatish, magnetizm, bo'yash, qizdirish, qaynatish va hokazo);
yil fasllariga xos tabiat hodisalarini biladi;
nima uchun ovqatlanish, nafas olish, o'qish kerakligini biladi;
organizmning ma'lum bir organlari funksiyasini biladi;
ayrim jismoniy jarayonlar muhimligini tushunadi;

konstruktor, pazl, mozaika, Legodan konstruksiyalar yaratadi.

5-6 yosh bo`yicha kutilayotgan natijalar

tabiat hodisalarining turli omillarga bog`liqligini tushunadi;

tabiatdagi o`zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi (masalan, qor erishi);

insonlarning atrof olamga ta`sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig`ish);

tabiiy materiallardan qo`l ishlarini yaratishni biladi, ish bosqichlarini belgilaydi;

mustaqil qurib yasashi mumkin;

jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi;

insonlar hayotida tabiatning ahamiyatini anglab yetadi.

6-7 yosh bo`yicha kutilayotgan natijalar

qurilmani mustaqil o`lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo`yicha);

shaxsiy qiziqishi va kuzatuvlariga bog`liq savollar beradi;

shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtiradi va tushuntiradi;

tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi;

turli resurslarni qo`llagan xolda shaxsiy kuzatuvlarni tasdiqlaydi va ta`riflaydi;

atrof muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni ajratish, daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog`ozni asrash).

Dunyoni badiiy tasavvur etish

3-4 yosh bo`yicha kutilayotgan natijalar

illyustratsiya, o`yinchoq, xalq amaliy san`ati asarlarini o`rganishda emotsional ta`sirlanadi;

tabiat obyektlarida, o`yinchoq, bolalarning o`z kiyimlarida ranglar jilosini anglaydi;

tanish qo`shiqlarni biladi;

diqqat bilan tovush, ohanglarni tinglaydi;

tasviriy san`at elementlaridan foydalanadi.

4-5 yosh bo`yicha kutilayotgan natijalar

O`zbekiston xalq amaliy san`ati haqida ilk tushunchaga ega (so`zana, keramika); san`atga tegishli kasblarning ayrimlari haqida tushunchaga ega (rassom, bastakor, aktyor);

ayrim san`at turlari va janrlarini farqlaydi (qo`shiq, raqs, musiqa, she`riyat, topishmoq, rasm, haykaltaroshlik);

ayri arxitektura qurilmalari haqida tushunchaga ega (yashash joyi va jamoat joyi);

qo`shiq va navolarda yuqori va past tovushlarni farqlaydi;

ayrim musiqiy asboblarning chalinishini farqlaydi (pianino, dutor, doira);

musiqaga monand raqsga tushishi mumkin.
5-6 yosh bo'yicha kutilayotgan natijalar
musiqiy asarga hissiy munosabat bildiradi;
musiqaga monand harakatlar o'ylab topishi mumkin;
badiiy asarlar qahramonlari rolini o'ynashi mumkin;
amaliy san'at turlari haqida birlamchi tushunchaga ega;
shaxsiy loyihalar yaratishda g'oyalar bildiradi;
musiqada uslublarni farqlaydi;
kichik ssenariylar tuzib, sahna ko'rinishlari tashkil eta oladi;
tabiiy materiallardan qo'l ishlari yasaydi;
kiyimlarni bezashi, guldastalar tuzishi, sodda retsept asosida taom tayyorlashi
mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirovna, S. Y. (2023). O 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 93-99.
2. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
3. Yulduz, S. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 124-129.
4. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 219-220.
5. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O 'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 158-160.
6. Sobirovna, Y. S. (2023). Methods and Tools of Economic Education in Preschool Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 109-115.
7. Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(5), 108-114.
8. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 361-367.

VOLUME-2, ISSUE-1

9. Oktam's, S. M. (2023). "Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 104–108.
10. O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
11. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.
12. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.
13. Ikromova, S. A. (2023). FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. *Innovation in Science, Education and Technology*.
14. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 386-388.
15. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
16. Gafurovna, L. S. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHISINING RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 300-309.
17. Gafurovna, L. S. (2023). THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL LEARNING RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
18. Sobirov, A. (2021). ВИДЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЧНОСТИ В СПОРТЕ И В ЖИЗНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 7(7).
19. Sobirov, A. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЯЮЩИЙСЯ У СПОРТСМЕНОВ: The features of negative psychological defense, manifested in athletes under the influence of external causes, and the factors causing it are classified. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 7(7).
20. Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 468-472.

VOLUME-2, ISSUE-1

21. Ne'matovna, T. Z. (2023). "BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI" MAZMUNI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 324-331.
22. Narziyeva Shahnoza Rustamovna. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research , 1(3), 127-131.
23. Kozimova, N. A. (2023). Psixologik konsultatsiya bosqichlari. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 90-95.
24. Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 175-177.
25. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 132–134.
26. Ravshanovna, X. S. (2023). O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 803-816.
27. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 116-122.0
28. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (pp. 60-62).
29. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 121-123).
30. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.
31. Isomova, F. A. T. Q. (2022). МАКТАБГАЧА TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI МАКТАБ TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.
32. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(11). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/444>.

33. UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTIONNS Rustamovna

34. Jalolov, T. S. (2023). СОЗДАНИЕ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ИМИТАЦИИ ШИФРОВАНИЯ МАШИНЫ ENIGMA НА ЯЗЫКЕ PYTHON. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 317-323.

35. Jalolov, T. S. (2023). STUDY THE PSYCHOLOGY OF PROGRAMMERS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 563-568.

36. Kozimova, N. A. (2023). Techniques and methods used in the process of psychological counseling. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 338-341.

37. Kozimova, N. A. (2023). PERSONALITY TYPES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 372-377.

38. Tursunova, Z. N. (2023). START MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN CLASSROOMS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 494-499.

39. Gafurovna, L. S. (2023). Mechanism for the Use of Digital Educational Resources by Future Primary School Teachers. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 123-128.